



▶ 2022 MARCH





“TA’LIM-TARBIYA JARAYONIGA INNAVATSION
YONDASHUVLAR, MUAMMO VA YECHIMLAR”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY

KONFERENSIYASI

TALABALAR, MAGISTRLAR, PEDAGOGLAR UCHUN





«Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Muammo va yechimlar»
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy 3-sonli online konferensiya



«INTELLECT EDUCATION OFFICIAL»
NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI

«TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA
INNOVATSION YONDASHUVLAR.
MUAMMO VA YECHIMLAR» MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
3 - SONLI ONLINE
KONFERENSIYASI

3-SON, 1-JILD MART - 2022 1-QISM



WWW.TALIMFIDOYILARI.UZ



«Ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Muammo va yechimlar»
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy 3-sonli online konferensiya

TAHRIRIYAT

Editor in chief

Hakimova Aziza Xaydaraliyevna

Preparing for publishing

Khidirboyev Fozil Oybek o'g'li

Bosh muharrir

Hakimova Aziza Xaydaraliyevna

Nashrga tayyorlovchi

Xidirboyev Fozil Oybek o'g'li

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Vahob Rahmonov

O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Jo'rayev Hamza Hamroqulovich

Mirzo Ulugbek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, dotsenti

To'xtaboyev Moxirjon Raximjonovich

Namangan MOK ilmiy-axborot tatqiqotlar bo'limi boshlig'i

Akhmedov Oybek Saporbayevich

Ilmiy-uslubiy Respublika jurnali tahrirchisi

Usmonova Umida Aybekovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

G'ulomjonov Odiljon Raximjon o'g'li

Andijon Davlat Universiteti

Navoiy Davlat stipendiyasi sohibi

Raximova Oygul Raxim Qizi

Toshkent farmatsevtika institutining «Dori vositalarining sanoat

texnologiyasi» kafedrasida dotsenti

Axmedov Oybek Saporbaevich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida professori,
filologiya fanlari doktori

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna

SamDU, Iqtisodiy fakulteti, iqtisodiy nazariya kafedrasida dotsent

Ilhomov Ziyovutdin Adxamovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tarix fanlari nomzodi (dotsent)



Mundarija		
1	JAMIYAT MA'NAVIY HAYOTI IZLARINING MODDIY MADANIYATDA AKS ETISHI. Rahmatova Feruza Qudrat qizi	5
2	MAKTABDA ASTRONOMIYADAN TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA MARS SAYYORASINI KUZATISH D.Ch. Muslimova	11
3	ASTRONOMIYADAN TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA YUPITER SAYYORASINI KUZATISH Muslimov Sunnatilla Choriyevich Muslimova Yulduz Choriyevna	16
4	ЎЗБЕК ПЕДАГОГИКАСИ ВА ОИЛАВИЙ ИНОҚЛИК Зоҳиров Рамиз Турдимуродович	20
5	KURASH MASHG'ULOTLARIDA TEXNOLOGIK YONDASHUV Gaziyev Nuritdin Ruhiddinovich	23
6	ZAMONAVIY O'QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGI -MUAMMO VA ECHIMLAR SHANLO MIRZAYEVA ABDURAXMONOVNA	26
7	THE DIFFERENTIATION OF ACADEMIC AND GENERAL ENGLISH Alimova E'zoza Ne'matillayevna	29
8	ANJIR MEVASI TARKIBIDAGI BIOLOGIK FAOL MODDALAR Do'monov Bahromjon Muxtarovich	32
9	ЛИНГВОПОЭТИКАДА ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР Шаҳодат Норова	36
10	KOMPRESSORGA KIRAYOTGAN YUQORI HAVO HARORATINING KOMPRESSOR SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI O'RGANISH. Yuldoshov Husniddin Ergashovich	40
11	ORALI VA OXIRGI SOVUTGICHLARINING ISSIQLIK ALMASHINUVI SIRTULARIGA BIRIKMALARNING KOMPRESSOR SOVUTISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI Yuldoshov Husniddin Ergashovich Xatamova Dilshoda Narmuratovna	43
12	Quyosh energiyasidan foydalanib er osti suvlaridan samarali foydalanish M.U.Muminov A.M.G'aniyev	47
13	МИЖОЗЛАР БИЛАН МУНОСАБАТ БОШҚАРУВИ (CRM) ВА ЭКОТИЗИМНИНГ БАНКЛАРНИ РАҚАМЛАШТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ Н.Н.Рўзиев	51
14	Дарсдан ташқари машғулотлар жараёнида талабалар маънавиятини ривожлантиришнинг тарихий-тадрижий тараққиёти Ж.А.Каршиев	55
15	СТРУКТУРНЫЕ РЕЛАКСАЦИЯ КВАНТОВО РАЗМЕРНЫХ СТРУКТУРАХ С ВОЗДЕЙСТВИЕМ ГАММА ОБЛУЧЕНИЙ АМЕТОВ БАЙРАМ ТУРСЫНБАЕВИЧ	31
16	ИЗУЧЕНИЕ ПЕРЕВАРИМОСТИ ПИТАТЕЛЬНЫХ ВЕЩЕСТВ У ОВЕЦ ПРИ ОТКОРМЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОРМОВЫХ ДОБАВОК Яхьяев Бахтиёр Садуллаевич	65
17	АКАДЕМИК ЛИЦЕЙЛАРДА "ИНФОРМАТИКА" ФАНИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИБ ЎҚИТИШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ Чориев Бекзод Абдирахмонович	69
18	Chet tilida yozma nutqni o'stirish bilan bog'liq ayrim mulohazalar Samadova Sevar Ahatovna	74
19	ОПТИМАЛЬНОЕ РЕШЕНИЕ СУЩЕСТВУЮЩИХ ПРОБЛЕМ В ГОСТИНИЧНОМ БИЗНЕСЕ С ПОМОЩЬЮ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБСЛУЖИВАНИЯ Рахмонова Нигина Анваровна	79
20	Stativlikni ifodalovchi fe'llar Kalandarov Aybek Ruzimbayevich	84
21	РОЛЬ СМИ В ИЗМЕНЕНИИ НОРМ РУССКОЙ РЕЧИ Шадиева Дилрабо Курбановна	88
22	«ДИХОТОМИЯ «МУЖ-ЖЕНА» В СИНХРОНИЧЕСКОМ И ДИАХРОНИЧЕСКОМ АСПЕКТАХ» Ахмедшина Лилия Рафаэльевна	93
23	АХВОРОТ ХАВФСIZLIGINI TA'MINLASHNING GLOBAL MUAMMOLARI Yuldash Abdullayevich KuralovG'ulomov Maqsadbek Karim o'g'li	97
24	ЭЛЕКТРОФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ОМИЧЕСКИХ КОНТАКТОВ К ФОСФИДУ ИНДИЯ М.У. Насыров, Д.М. Уалиев, А.К. Кенгесбаев, А.Б. Юлдашева	101



Chet tilida yozma nutqni o‘stirish bilan bog‘liq ayrim mulohazalar

Samadova Sevar Axatovna (BDU)

Ushbu maqolada chet tilida yozma nutqni o‘stirish metodikasiga oid fikrlar bayon qilinadi ekan, aynan til o‘rganish, og‘zaki va yozma nutqni ravon shakllantirish kabi masalalarning bugungi shiddatli taraqqiyot talabidan kelib chiqilgan dolzarb ijtimoiy vazifalardan biri ekanligi hisobga olindi. Ma‘lumki, yozuv gapirish, tinglab-tushunish va o‘qish bilan bir qatorda nutqiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi va nutqiy muloqotda o‘z o‘rniga ega. Odatda ko‘proq e‘tibor og‘zaki nutqqa qaratilganligi sababli yozma nutq ko‘nikmalarini o‘stirish chet tili o‘qitishda biroz e‘tibordan chetda qolib ketmoqda. Bunga misol qilib o‘rta maktab dasturlarida hamda nofilologik fakultetlarda chet tili o‘qitish dasturlarini keltirish mumkin. Ulardan chet tilida yozuvga asosan o‘qitish vositasi sifatida qaraladi va yozuvning muloqot jarayonidagi rolga unchalik ahamiyat berilmaydi. O‘rta maktabda yozma nutqqa o‘rgatishdagi yuqori natija xorijlik o‘rtog‘iga xat yozish bilan chegaralanib qolmoqda. Oliy o‘quv yurtlarining nofilologik fakultetlarida ham chet tilidagi yozuvga asosan, chet til o‘qitish vositasi sifatida qaralmoqda. Talabalar o‘zlarining bo‘lajak kasbiy faoliyatlaridagi yozuvning rolini va ahamiyatini to‘la his etmaydilar. Bu esa yozma nutqqa bo‘lgan qiziqishni yo‘q qilib, aksincha unga nisbatan e‘tiborsizlik va ma‘suliyatsizlikni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari so‘nggi yillarda ko‘pchilik fanlarda (shuningdek chet tili o‘qitishda ham) yakuniy sinovlar testlar orqali o‘tkazilayotganligi talabalarda yozma nutqni nazorat vositasi sifatida qo‘llanilishini biroz cheklab qo‘ymoqda).

Ammo hozirgi davrda mamlakatlararo integrallashuv, xalqaro aloqalarning, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida (iqtisodiyot, diplomatiya, san‘at, sport va h.k.) yanada o‘shib borishi yozma nutqqa yangicha munosabatni shakllantirishini talab etmoqda. Masalan, yaxshi menejer yozuvda o‘z qarashi va fikr-mulohazalarini shunchaki faktlarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, aksincha hamkasbini yoki xat yo‘naltirilgan shaxsni o‘z fikr-mulohazalarining to‘g‘riligiga ishontira olishi ham zarur. Shuning uchun ham chet til o‘qitishda yozma nutq ko‘nikmalarini o‘stirishga alohida ma‘suliyat bilan qarash, zarur hollarda chet til o‘qitish dasturiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish hozirgi zamon



talablaridan biri hisoblanadi. Bu yozma nutqqa o'rgatishning samarali yo'llarini izlab topish va amaliyotga tadbiq qilishni taqazo etadi.

Buning uchun talabalarda yozma nutqqa o'rgatishni osondan murakkabga borish tamoyili asosida tashkil qilish, talabalarda yozma nutq bilan ko'proq shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish, ularda tanqidiy fikrlashni o'stirish, o'z fikrini aniq, lo'nda jummalarda ishonarli ifodalshni o'rgatish, fikrni yozma bayon qilishning turli shakl va usullaridan kengroq foydalanish, talabalarining auditoriyadan tashqarida, mustaqil ish faoliyatlarida ham yozma nutq ko'nikmalarini o'stirishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqish, iqtidorli va o'quv materialini qiyinchilik bilan o'zlashtiruvchi talabalarga nisbatan differensial yondashuvni tashkil qilish, qiyin o'zlashtiruvchi talabalarga ham o'z bilim darajasi va imkoniyatlaridan kelib chiqib topshiriq berish lozim. Nofilologik fakultet talabalarining chet tilidagi nutq ko'nikmalarini o'stirishni ularni oliy o'quv yurtiga kiringunga qadar chet tilida shakllantirilgan yozuv ko'nikmalari asosida tashkil qilish lozim.

Talabalarining nemis tili yozuvi (grafikasi, orfografiyasi, tovush-harf munosabati) bilan bog'liq til tajribasi o'qituvchiga yozma nutq ko'nikmalarini o'stirishni samarali tashkil qilishga, vaqtdan tejashga, yozuvdagi interferensiyani bartaraf qilishga va asosiy e'tiborni fikrni ixcham, ta'sirli ifodalashga qaratishga imkon yaratadi.

Fikrni bayon qilishdagi ko'plab xatolar yozma ishni yaxshi tashkil qilinmasligi bilan ham bog'liq, chunki yozayotgan shaxs yozma nutqqa xos qonuniyatlarni har doim ham yaxshi tushunavermaydi. Bu faqat bir bosqichdangina iborat jarayon bo'lmay, balki bir necha bosqichni o'z ichiga olishni yozayotgan shaxs tushunib yetishi darkor.

Og'zaki nutqda gapiruvchi ichki nutqda ma'lum bir tartibga tizilgan fikr-mulohazalarini ovoz qobig'iga o'ragan holda tashqariga chiqaradi va ta'sirchanlikni oshirish maqsadida turli ekstralingvistik omillardan foydalanadi.

Yozayotgan shaxs esa bunday imkoniyatga ega emas. Shuning uchun ham u fikrni ta'sirchanligini oshirishda so'zlarni tanlab o'z o'rnida qo'llash, ifoda bayonini turli silistik vositalar bilan kuchaytirishga taalluqli nutq-motor harakatlarini ham bajarishi kerak.

Fikrni yozma ravishda ifodalashda quyidagi ketma-ketlikka amal qilish maqsadga muvofiq:

1. Nima yozishni aniqlab olish;
2. Yozma ish (xat, maqola va h.k.) kimga qaratilganligini aniqlash;



3. Koʻzlangan maqsadga erishish uchun qanday bayon qilish usulini aniqlash;
4. Qanday ketma-ketlikda fikrni bayon qilish rejasini tuzish;
5. Rejaga muvofiq zarur axborot, materiallar toʻplash;
6. Yozma ishning xomaki nusxasini tayyorlash;
7. Bir qator oʻqib chiqish orqali imloviy va stilistik xatolarni koʻzdan kechirib chiqib tuzatish;
8. Toʻgʻrilangan variantni qayta yozib chiqish.

Talabalarga yozma ish uchun topshiriq berganda avval gap yozishni, soʻng abzats va matn yozdirishni mashq qildirish lozim. Bunday ishni avval berilgan soʻzlarga bittadan gap tuzish, biror narsa yoki hodisa xususida ikki yoki uchta gap yozishdan boshlash, talabalarni asta-sekin bogʻliq fikr bildirishga oʻtishlariga yordam beradi.

Rasmni koʻrsatib, uni tasvirlashni soʻrashdan oldin fikriy hujum usulini qoʻllash maqsadga muvofiq. Buning uchun oʻqituvchi talabalardan rasmga qarab turli gaplar tuzishni, ular tuzayotgan gaplar tahlil va tanqid qilinmasligini aytadi va talabalarni hech ikkilanmay, choʻchimay erkin fikr bildirishni soʻraydi. Bunday topshiriq talabalarni faollikka undaydi va rasm yuzasidan turfa fikrlar (gʻoyalar) bildirilishiga olib keladi. Chunki har bir talaba shu rasmga turli nuqtayi nazardan qaraydi. Kimdir uni nima ekanligini, boshqa biri rangini, katta-kichikligi haqida gaplar aytishadi. Shunday qilib rasmdagi narsalarning nimaligi, rangi, hajmi, vazifasi, qayerdaligi bilan bogʻliq gaplar aytiladi. Bunday “fikriy hujum” orqali oʻtkazilgan tayyorgarlikdan soʻng talabalardan ularni maʼlum bir ketma-ketlikda tasvirlab yozish soʻraladi. Yozma ish oldidan oʻtkazilgan ogʻzaki tayyorgarlik nimani yozishni va qanday yozishni bilmay turgan ayrim talabalar uchun ham yaxshigina koʻrsatma boʻlishi mumkin.

Talabalarda yozma ishga nisbatan motivatsiyani hosil qilish va qiziqishni uygʻotish uchun turli lingvodidaktik oʻyinlardan ham foydalanish mumkin. Buning uchun kichikroq koʻptokcha kerak boʻladi. Masalan, oʻqituvchi doskaga bir gap yozadi. “Ich gehe zur Uni zu Fuss und komme immer rechtzeitig”. Soʻng u qoʻlidagi koʻptokchani talabalardan biriga uzatadi va undan gapni davom ettirishni soʻraydi. U ham shu gapga mantiqiy bogʻliq bir gap aytadi va koʻptokchani boshqa bir talabaga uzatadi. Bunday oʻyin talabalarni faol boʻlishga va biror fikr bildirish uchun tayyor turishga undaydi, chunki koʻptokchani har kim xohlagan talabaga uzatishi va undan fikr bildirishini soʻrashi mumkin. Bildirilayotgan gaplarni ikki



talaba yozib boradi. Bunday ish talabalar biror fikr bildirolmay qolgunga qadar davom etadi. Soʻng talabalar ikki guruhga boʻlinib, aytilgan fikrlarni qayta koʻrib chiqib matn tuzadilar va bir-birlariga oʻqib beradilar. Bunday jamoaviy ishda faqat aʻlochi talabalar faol boʻlib, qolganlari tomoshabin boʻlib qolmasliklari uchun ularga topshiriqlarni boʻlib berish mumkin: har bir guruhdan bir talaba yozib boradi, ikkinchisi orfografik xatolarni kuzatib, toʻgʻrilab boradi, uchinchisi grammatik xatolarni toʻgʻrilaydi, toʻrtinchisi hikoyadagi mantiqiy bogʻliqlikni kuzatib boradi, qolganlari esa turli fikrlarni bildirishadi.

Xulosa qilib aytganda, nofilologik fakultet talabalarining yozma nutq koʻnikmalarini shakllantirish hozirgi vaqtdagi chet til oʻqitish oldida turli muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, biznesga oid turli yozishmalarni amalga oshirishda va talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatiga bogʻliq holda ulardagi yozma nutq koʻnikmalarini oʻstirish ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun yetuk kadrlar tayyorlash ishining bir qismini tashkil qiladi. Shuning uchun ham yozma nutq koʻnikmalarini oʻstirish ishiga yangicha yondashuv va samarali oʻqitish usullarini yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sattorov T.K. Nolinoniy oliy oʻquv yurtlarida xorijiy til taʼlimi muammolari. Anjuman materiallari. “Nofilologik oliy oʻquv yurtlarida xorijiy til taʼlimining dolzarb muammolari” Toshkent. 2008
2. Jalolov J.J. Chet tili oʻqitish metodikasi. Toshkent “Oʻqituvchi” 1996
3. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар. “Фан” 2002
4. Самадова С.А., Мирзоева Г.Т. Талабаларни ахлоқий-эстетик тарбиялаш тамойиллари ва шартлари. Учёный XXI века Научный журнал Россия 12, 2016. стр. 31-33
5. Джаббарова Д. Ш., Мирзаева М. Р., Самадова С. А. Использование педагогических технологий в изучении иностранного языка //Наука. Мысль: электронный периодический журнал. – 2014. – №.6
6. Самадова С.А. Внедрение икт в процесс преподавания иностранного языка //Ученый ххi века. – с. 7.



7. Samadova S. A., Tursunova M. Innovative Culture of the teacher in the education system //E-Conference Globe. – 2021. – C. 250-255.
8. Axatovna S. S. Importance of learning a Foreign Language //International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 01. – C. 66-69.